



TOHIR MALIKNING "HALOL NIMA-YU, HAROM NIMA?" ASARIDA FALSAFIYLIK

Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

X.G.Nazarova

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Kenjayeva Mashhura Bobomurod qizi

Annotatsiya. *Mazkur ishda o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Tohir Malikning "Halol nima-yu harom nima?" asari asosida halollik, yaxshilik, saxovat, to'g'rilik va insoniylik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy tushunchalar tahlil etilgan. Asarda muallif ilgari surgan g'oyalar, yomonlikka yaxshilik bilan javob berish, vijdon oldidagi mas'uliyat, yolg'on va egrilikka qarshi haqiqatning g'alabasi, baxillik va xudbinlikning jamiyatga keltiradigan zarari yoritib berilgan. Shuningdek, diniy va mumtoz adabiyot namunalaridan keltirilgan hikmatlar orqali halollik va to'g'rilikning inson hayotidagi beqiyos ahamiyati ochib beriladi..*

Kalit so'zlar: *vijdon, ma'naviyat, axloqiy mezon, to'g'rilik va egrilik, jamiyat ma'naviyati.*

ФИЛОСОФИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ТАХИРА МАЛИКА «ХАЛЯЛЬ НИМА-Ю, ХАРАМ НИМА?»

*Преподаватель Самаркандского государственного педагогического
института*

Х.Г. Назарова

Студент Самаркандского государственного педагогического института

Кенджаева Машхура Бобомурод кизи

Примечание. Данная работа посвящена анализу произведения великого представителя узбекской литературы Тохира Малика «Халал Нима-ю Харам Нима?». На основе произведения анализируются такие высокие духовно-нравственные понятия, как честность, доброта, щедрость, правильность и гуманность. В работе освещаются выдвинутые автором идеи: ответ на зло добром, ответственность перед совестью, победа истины над ложью и нечестностью, а также вред, который скупость и эгоизм наносят обществу. Также через мудрость религиозной и классической литературы раскрывается несравненная важность честности и правильности в человеческой жизни. Ключевые слова: совесть, духовность, моральный критерий, правильность и несправедность, духовность общества.



PHILOSOPHY IN THE WORK OF TAHIR MALIK, "HALAL NIMA-YU, HARAM NIMA?"

Teacher of the Samarkand State Pedagogical Institute

X.G. Nazarova

Student of the Samarkand State Pedagogical Institute

Kenjayeva Mashhura Bobomurod qizi

Annotation. *This work is devoted to the analysis of the work of the great representative of Uzbek literature, Tohir Malik, "Halal Nima-yu Haram Nima?" Based on the work, such high spiritual and moral concepts as honesty, goodness, generosity, correctness and humanity are analyzed. The work highlights the ideas put forward by the author, responding to evil with good, responsibility before conscience, the victory of truth over lies and crookedness, and the harm that stinginess and selfishness cause to society. Also, the incomparable importance of honesty and correctness in human life is revealed through wisdom from religious and classical literature.*

Keywords: *conscience, spirituality, moral criterion, correctness and crookedness, spirituality of society.*

KIRISH

O'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Tohir Malik o'z ijodi orqali jamiyatdagi ma'naviy muammolarni insoniy fazilatlarini va hallolik g'oyasini chuqur yoritib bergan yozuvchidir. Uning „Halol nima-yu harom nima?“ nomli asari ham ana shunday hayotiy, o'tkir ma'naviy mazmunga ega bo'lib o'quvchini o'z vijdoni bilan yuzlashtiradi. Bu asr orqali muallif inson hayotida hallollik va haromdan tiyilishning naqadar muhimligini har bir inson bu tushunchalarga ongli ravishda yondashishi lozimligini ko'rsatadi.

Yaxshi kishilar birovdan yomonlik ko'rsalar ham yaxshilikni ayamaydilar. Umri yaxshilik qilish bilan o'tgan kishi vafot etsa ham yaxshiligi yashayveradi. Insonlarning yetakchilari bo'lgan payg'ambarlarga boqaylik, doimo insonlarga yaxshilik bilan xizmat qildilar. Aslo yomonlik qilmadilar. Haqiqiy insoniylik shundadir. Yomonlikka yomonlik bilan javob berish – haqqimizdan, yaxshilik bilan javob berish esa insoniyligimizdan. Insoniylik burchimizni qay darajada bajaryapmiz? Shu haqida mulohaza qilib ko'raylik. [3b]

„Yaxshi kishilar birovdan yomonlik ko'rsa ham yaxsholikdan ayamaydilar“ Bu fikr orqali muallif yaxshilikni insonning tabiiy holati, yomonlikni esa sinov sifatida talqin qiladi. Ya'ni kimki yomonlikka yomonlik bilan emas balki yaxshilik bilan javob bera olsa, uchun insondir. „Umri yaxshilik qilish bilan o'tgan kishi vafot etsa ham, yaxshiligi yashayveradi“. Bu satrlar inson



umrining chegaralanganiga qaramay, uning qilgan ezgu amallari abadiy yashashini ifodalaydi. Demak insonni buyuk qiladigan narsa – mol – dunyo emas, balki u ortida qoldirgan yaxshi iz va yaxshi amaldir.

“Yomonlikka yomonlik bilan javob berish haqqimizdan, yaxshilik bilan javob berish esa insoniyligimizdan”. Bu satr asarning g‘oyaviy cho‘qqisidir. Unda muallif insoniylik va odatiy insoniy reaksiya o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatadi. Yomonlikka yomonlik bilan javob berish tabiiy, ammo yomonlikka yaxshilik bilan javob berish – chin insoniyligimiz belgisi.

Rasululloh (s.a.v) deganlar: “Yaxshilikni rahmdil, mehribon ummatlarimdan kutinglar. Shunda sizlar ulardan umid qilgan marhamatlarga erishasizlar. Toshbag‘ir, qattiqqo‘l, berahm ummatlarimdan zinhor yaxshilik kutmanglar, zero, ularga Allohning lanati yog‘ilib turadi. Ey, Ali! Alloh taolo yaxshilikni yaratganga uning o‘z ahlini ham alohida yaratgan va ularga yaxshilik va xayrli ishlarni yaxshi ko‘rsatib qo‘ygan. Shuning uchun ulardan kim yaxshilik kutsa, albatta maqsadga erishaveradi. Buning misoli chanqoq bo‘z yerga suv quyib yuborilsa, u yer qanchalik yashnab egalarini serob qilgani kabi yaxshilik ahli ham odamlarga shunchalik manfaat va bahra yetkazur. Bu dunyodagi eng yaxshi kishilar oxiratda ham yaxshilar qatorida turgaydir.

Bu jumlarlar shuni anglatadiki, yaxshilik qilish ham bir ne‘matdir. Har kim ham yaxshilik yo‘lini tanlay olmaydi. Alloh taolo ayrim bandalariga yaxshi ishlarni sevish, ularni qilishdan zavq olish sifatini ato etadi. Demak, kimda kim yaxshilikka moyil bo‘lsa, bu- Allohning unga bergan eng katta in‘omidir.

O‘g‘rilik Muso alayhissalomning hassalari kabidir.

Egrilik esa sehrgarlarning sehriga o‘xshaydi.

To‘g‘rilik o‘rtaga chiqishi bilan ularning hammasini yutadi.

To‘g‘rining yordamiga chopgan – Allohning yordamiga chopgan.

Har bir soxtalik iymonsizlikka yetaklaydi, har bir to‘g‘rilik iymondandir.

Yuqoridagi jumlalarda ramziy ma’noga ega. Payg‘ambar Muso alayhissalomning hassasi Qur’onda haqiqatni isbotlovchi, mo‘jiza ko‘rsatuvchi vosita sifatida tilga olingan. Muallif to‘g‘rilikni aynan shu hassaga o‘xshatib, haqiqat har qanday yolg‘on va egrilik ustidan g‘alaba qozonadi. Bu yerda „Sehrgarlar“ soxta , aldovchi, yuzaki chiroy bilan odamni chalg‘ituvchi kuch ramzidir. Egrilik ham shunday u avvaliga jozibali, foydali ko‘rinsa-da, aslida yolg‘on halokatga eltuvchi yo‘ldir.

Donishmanddan so‘raldi: - Osmonlarda kattaroq va og‘irroq narsa bormi, agar bo‘lsa nima u?

Javob berildi:

-Or-nomusli kishiga tuhmat qilmoq osmondan ham katta va og‘irroq . [95]

Tuhmat nafaqat bir kishining obro‘cini yo‘q qiladi, balki uning oilasiga , bolalariga hattoki butun jamoaga zarar yetkazadi. Tuhmat katta gunoh



hisoblanadi. Insonni haqoratlash, noo'rin ayblash, iymon va insoniylikdan uzoq belgidir.

Bir hakimdan so'radilarkim: „Saxovat yaxshiroqmu yo shijoat?”.

Hakim dedi: „Saxovat bo'lsa, shijoatga hojat yo'qtur”. Azizlar, siz o'zingizni saxovat va karam egasi deb bilmaguningizcha shijoatli deb tushunmang. Agar shijoatli bo'lsangiz o'zingizni saxovat va karam egasi bo'lishga majbur qilar edingiz.[144b]

Hazrat Navoiy shunday deydi:

Har kimsaki, iqbol aning yovaridur,

Har yonki yuz ura, himmati rahbaridur.

Himmat duri faxr tojining gavharidur,

Chun himmat odam o'g'lining sarvaridur. [1.162]

Shoir fikricha, kimda himmat bo'lsa, unga omad, baxt va muvaffaqiyat hamroh bo'ladi. Inson qayerga bormasin, agar uning himmati kuchli bo'lsa, u yo'lni topadi, to'siqlarni yenga oladi.

Baxillik - bir zararli tikandir. Agar u kimga botsa, o'ldirmay qo'ymaydi. Baxil bugun topganini asrab qo'ysa, ertaga uning qabri bugungi ro'zg'oridek qorong'i bo'ladi. Baxillik va shafqat bir ariqdan suv icha olmaydi. Bir vujudga ikkisi yashay olmaydi. Dunyoga maftun bo'lma va ochko'zlik qilmaginki, tiriklik mavsumi juda qisqadir...

Baxillik – inson qalbini zaharlaydigan illatdir. U odamning ichini kemiradi, tinchni oladi, boshqalarning baxtidan huzur topishiga to'sqinlik qiladi. Go'yo tikan tanaga kirib, og'rik keltirganidek baxillik ham ruhiy azob beradi va oxir-oqibat insonni ma'nau „O'ldiradi”. Bu jummalarda baxilning dunyoga bog'lanib, mol-mulkni asrab, hech kim bilan bo'lishmasligi tanqid qilinmoqda. U dunyoda topganini faqat o'z foydasiga ishlatadi, ammo o'limdan keyin u boyliklar unga hech foyda bermaydi. Qabri ham, hayoti singari, zulmat va sovuq bo'ladi. Agar inson baxil bo'lsa, u boshqaga rahm qilmaydi, yordam berishni xohlamaydi. Shuning uchun bu ikki sifat bir qallda uyg'un yashamaydi. Inson hayoti qisqa, shuning uchun dunyo boyliklariga haddan tashqari berilmaslik kerak. Ochko'zlik va baxillik odamni asl qadriyatlardan mehr, saxovat, ezgulikdan uzoqlashtiradi. Hayot abadiy emas, shuning uchun vaqtni foydali, saxiy va halol o'tkazish lozim.

Darigoki, toatga o'ymoq bo'yun,

Baxil oldida yaxshi bo'lmush o'yun.

Eshakdek chekar yukni bir fals uchun,

Yuz alhamd o'qur bir desang, tortib un. [1.227]

Asar voqealari oddiy hayotiy holatlarga asoslangan bo'lsa-da, unda chuqur falsafiy ma'no mujassam. Adib har bir obraz orqali jamiyatda keng tarqalgan illatlatlarni – yolg'onchilik, xudbinlik, ikkiyuzlamachilik kabi yomon sifatlarni



fosh etadi. Shu bilan birga yozuvchi o'quvchini bu illatlarga qarshi kurashishga, halol mehnat bilan yasashga undaydi.

Asarda asosiy g'oya – insonning vijdon oldidagi mas'ulyati. Muallif „Halol“ va „Harom“ so'zlarini diniy yoki iqtisodiy ma'noda emas, balki axloqiy mezon sifatida talqin qiladi. Inson faqat moddiy manfaatni o'ylab halol yo'lni tark etsa, u nafaqat jamiyat, balki o'z ruhiy dunyosini ham yo'qotadi. Tohir Malik shu fikrni obrazlar, dialoglar va hayotiy voqealar orqali ta'sirchan tarzda yetkazadi.

Asarda, shuningdek, ota-onaning farzand tarbiyasidagi roli ham yoritilgan. Yozuvchi ta'kidlaydiki, bola halol va haromni o'rganishni, avvalo, oiladan ota-onaning o'zo haromdan tiyilmasa, farzand ham halollik tushunchasiga befarq bo'lib ulg'ayadi. Shu tariqa, Tohir Malik asar orqali ma'naviyat ildizi oiladan boshlanishini uqtiradi. Asarni o'qigan inson o'z hayoti, o'z xatti-harakatlari haqida chuqur o'ylaydi. Chunki yozuvchi „halollik“ ni faqat moddiy tozalik deb emas, balki ruhiy poklik, niyat tozaligi sifatida ham talqin qiladi. Inson halol bo'lsa, uning qalbi tinch, hayoti barakali bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Tohir Malikning „Halol nima-yu harom nima?“ asari – bu o'zbek adabiyotidagi ma'naviy uyg'onish ramzidir. U o'quvchini hallollik, vijdon, insoniylik, adolat kabi yuksak fazilatlarga chorlaydi. Asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy hayotdagi ma'naviy muammolarni anglash uchun muhim saboq bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tohir Malik. Halol nima-yu, harom nima?. Yangi asr avlodi. T.: 2018. 253B.
2. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: 2002. –B 557.
3. Hotom Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: 2004. 264B
4. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: 2018. B487